

## Ilmiy ishlar

1. "O'simliklar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari, tabiiy va oqova suvlarga ishlov berish elektrotexnologiyasini rivojlantirish ilmiy metodologik asoslari" ilmiy mavzusi
  2. "Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish, qayta ishlash va saqlash jarayonlarida elektrofizik ta'sirlar va qayta tiklanuvchi energiya ma'nbalarining (QTEM) energiya samaradorlik omillaridan foydalanishning nazariy asoslari va amaliy yechimlari" ilmiy mavzusi
  3. "Qishloq xo'jaligi elektr yuritmalari motorlarini anormal rejimlardan himoyalashning kombinatsiyalashgan usulini va qurilmasini ishlab chiqish" ilmiy mavzusi
  4. "Elektrogidravlik effekt bilan suvni zararsizlantirish usulini va parametrlarini asoslash" ilmiy mavzusi
  5. "Kombinatsiyalashgan elektr yuritmalari texnika vositasining energetik parametrlarini asoslash" ilmiy mavzusi
  6. "Girlyandli mikroges asosidagi mobil elektr stansiyaning energetik parametrlarini asoslash" ilmiy mavzusi
  7. "Uzum ko'chatini yetishtirishning elektrotexnologiyasini ishlab chiqish" ilmiy mavzularida ilmiy ish olib borilmoqda.
- "Elektrotexnologiya va elektr uskunalari ekspluatatsiyasi" kafedrasida Ilmiy-texnika dasturlari doirasida bajarilayotgan loyihalar

№	Ilmiy tadqiqot ishlarining mavzulari	Loyihaning maqsad va vazifalari	Kutilayotgan ilmiy, amaliy va iqtisodiy natijalar
1	Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish, qayta ishlash va saqlash jarayonlarida elektrofizik ta'sirlar va qayta tiklanuvchi energiya ma'nbalarining (QTEM) energiya samaradorlik omillaridan foydalanishning nazariy asoslari va amaliy yechimlari.	Mavzuga oid bo'yicha Respublik va xorijda olib borilgan ilmiy tadqiqot izlanishlari natijalari, patent ma'lumotlari taxlil qilinadi. Zamonaviy texnologik va texnik yechimlarining energoekologik va texnologik takomillashtirish prinsiplari va yo'nalishlari shakllantiriladi. Energiyatexnologik jarayonlari samaradorligini oshirishning nazariy asoslari ishlab chiqildi.	Agrosanoat majmui tarmoqlarida energiyatexnologik jarayonlariga oid eng zamonaviy ilmiy texnik yechimlarni o'rganish va ularni taxlili natijasida qo'yilgan muammolarni hal etish usullari aniqlanib maqsad va vazifalar belgilanadi. Xar bir texnologik jarayon uchun energiya sarf xarajatlari tahlil qilinadi va ularda energiya tejash choralari ishlab chiqiladi. Oraliq hisobot tayyorlanadi